

Misr sari



16:16 / 12.12.2021 2225

Muso kelishilgan muddatni o'tab bo'lgach, ahli oilasi bilan (Misr tomon) yo'lga tushdi. Qizning otasi bilan xayr-xo'shlashdilar. Chol ularni kuzatib:

- Allohning barakoti ey bolam! Safaringiz bexatar bo'lsin ey qizim!

Qop-qorong'u, sovuq bir kechada Muso ahli oilasi bilan yo'lga chiqdi. Sahroda milt etgan olov ko'rinmasdi. Ular yo'lni yoritishga, isinishga olov topa olmasalar nima qiladilar? Ikkovlari yo'lda ketaturib, Muso olov qidira boshladi. Banogoh: **«U ahli oilasiga: «Sizlar kutib turinglar. Aniqki men bir olovni ko'rib qoldim. Shoyad sizlarga biron xabar yoki isinib olishlaringiz uchun u olovdan cho'g' olib kelsam», dedi».**

Muso uzoqda ko'rinayotgan olov tomon ketdi. **«Endi qachonki uning oldiga yetib kelgach u muborak joydagi vodiyni o'ng tarafidan - daraxtdan unga nido qilindi: «Ey Muso, albatta, Men barcha olamlarning Parvardigori Allohdirman». «Men seni (Payg'ambarlikka) tanladim.**

Bas, (o'zingga) yuboriladigan vahiyga quloq tut: Darhaqiqat Men Allohdirman.(hech qanday) Iloh yo'q, faqat Men bordirman. Bas, sen Mengagina ibodat qil va Meni zikr qilish uchun namozni to'kis ado qil! Toki har bir jon qiladigan sa'y-harakati sababli jazolanishi uchun (qiyomat) soati albatta kelguvchidir».

Muso alayhissalomning qo'lida aso bor edi, u uni foydalanish maqsadida ko'tarib yurar edi. Alloh taolo dedi:

- **«Ana u - qo'lingdagi narsa nimadur. Ey Muso?».**

Muso alayhissalom soddadillik bilan **«U asoyim (hassam)» dedi**. So'ng u Alloh taolo bilan iloji boricha uzoqroq suhbatlashmoq niyatida asoning foydalari haqida batafsil gapirib ketdi: **«U asoyim. Unga tayanurman va u bilan qo'ylarimga barg qoqib berurman. Yana unda boshqa ishlarim ham bor».**

«(Alloh) aytdi: **«Uni yerga tashlagin, Ey Muso.**

Bas, (Muso) uni tashlagan edi, banogoh u yuradigan-jonli ilon bo'lib qoldi. (Alloh) dedi: «Uni ushla! qo'rqmagin, Biz uni avvalgi holiga qaytarurmiz». Alloh taolo Muso alayhissalomga yana bir oyat-alomat berdi: **«Qo'lingni qanoting-qo'ltig'ingga tiqqin, u hech qanday ziyon-zahmatsiz oppoq-nurli bo'lib chiqur. Bu ikkinchi mo'jiza (bo'lur)».**

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad